



DIGITAL SILK ROAD: RAQAMLI DIPLOMATIYA HAMDA XAVFSIZLIK O'LCHOVLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20082840>

Sadullayeva Laziza Umar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: s. f. d., dotsent Saidov Sanjar Shavkatovich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Digital Silk Road tashabbusining global raqamli transformatsiyadagi o'rni, uning geosiyosiy va iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda Belt and Road Initiative doirasida amalga oshirilayotgan raqamli infratuzilma loyihalari, xususan telekommunikatsiya, sun'iy intellekt va ma'lumotlar markazlari rivoji ko'rib chiqiladi. Shuningdek, China ning global ta'sirining kuchayishi, United States bilan texnologik raqobati hamda rivojlanayotgan davlatlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va xavflar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Digital Silk Road, raqamli infratuzilma, geopolitika, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль инициативы Digital Silk Road в глобальной цифровой трансформации, а также её геополитические и экономические последствия. Особое внимание уделяется развитию цифровой инфраструктуры в рамках Belt and Road Initiative, включая телекоммуникации, искусственный интеллект и центры обработки данных. Рассматривается усиление влияния China, её технологическая конкуренция с United States, а также возможности и риски для развивающихся стран.*

Ключевые слова: *Digital Silk Road, цифровая инфраструктура, geopolitika, искусственный интеллект, кибербезопасность, экономическое развитие*

Abstract: *This article examines the role of the Digital Silk Road initiative in global digital transformation and analyzes its geopolitical and economic impacts. It focuses on the development of digital infrastructure within the framework of the Belt and Road Initiative, including telecommunications, artificial intelligence, and data centers. The study highlights the growing influence of China, its technological competition with the United States, and the opportunities and challenges faced by developing countries.*



Keywords: *Digital Silk Road, digital infrastructure, geopolitics, artificial intelligence, cybersecurity, economic development*

KIRISH

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayoni tezlashib hukumatlar an‘anaviy infratuzilmadan raqamli infratuzilma o‘tib bormoqda. Bu jarayonda Xitoy Xalq Respublikasining “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi ham ilg‘or qatnashib, o‘zining yangi “Raqamli ipak yo‘li” loyihasini ilgari suryabdi.

Xitoyning dunyodagi eng yirik infratuzilma loyihalaridan bo‘lgan “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi 2013-yilda Xitoy va hamkor davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash maqsadida yo‘lga qo‘yilgan. Uning raqamli infratuzilma komponenti bo‘lgan “Raqamli ipak yo‘li”(Digital silk road) 2015-yilda ishga tushirilgan bo‘lib, BRI strategiyasining muhim qismiga aylandi. DSR diplomatik aloqalar va bozor munosabatlari orqali Xitoyning xalqaro miqyosdagi mavqeini yanada oshirdi va u raqamli savdo, elektron tijorat hamda Xitoyning raqamli yuanidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish uchun 5G tarmoqlari, optik tolali kabellar, ma‘lumotlar markazi inshootlarini joylashtirishni qamrab oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Raqamli ipak yo‘li” ko‘p tarmoqli lohiya bo‘lib, u o‘z ichiga davlatlar, kompaniyalar va hamkor mamlakatlarni qamrab oladi. Asosiy tashabbuskor sifatida Xitoy hukumati loyihalarni moliyalashtirib, strategik yo‘nalishlarni belgilash vazifasini bajaradi. Ikkinchidan,

texnologik kompaniyalar bo‘lsa tashabbusning amaliy ijrosini ta‘minlash bilan shug‘ullanadi. Masalan, Huawei, ZTE, Alibaba Group, Tencent Holdings kabi kompaniyalar telekommunikatsiya, e-commerce va sun‘iy intellekt sohalarida yetakchi rol o‘ynab, Xitoy uskunalaridan foydalanib mintaqaviy loyihalarni amalga oshiradi [1].

2015-yilda Indoneziya Xitoyning Huawei kompaniyasi bilan hamkorlikda Bandungda “Xavfsiz shahar” model saytini ochdi. Shuningdek, Kambodjada 2014-yilda Xitoy hukumati Kambodja Jamoat xavfsizligi vazirligiga yopiq elektron televizion (CCTV) kuzatuv loyihasi uchun 20 million yuan (ya‘ni 2,76 million AQSh dollari) ajratdi. Shu bilan bir qatorda, 2015 yilda Xitoy Kambodja hukumatiga 200 ta ultratovushli tibbiy uskunalar yetkazib berishi DSR doirasida xavfsizlik va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning amaliy misoli hisoblanadi [2]. Bundan tashqari, ma‘lumotlar infratuzilmasi ham bu loyihada muhim o‘rin egallaydi. Masalan, Tencent Holdings 2021-yilda Indoneziyada o‘zining birinchi data markazini ishga tushirdi [3], GDS Holdings esa 2024-yilda Malayziyada yangi ma‘lumotlar markazini ishga tushirishni rejalashtirdi [4]. Hozircha Xitoy ma‘lum davlatlar bilan loyihalarni ma‘lumotlar markazlarini qurish bilan cheklanmoqda.



“Raqamli ipak yo‘li” bir nechta muhim yo‘nalishlardan iborat bo‘lib, ulardan telekommunikatsiya va 5G taxnologiyalari orqali global internet qamrovi kengaytirilmoqda. Xitoy kompaniyalari arzon va samarali texnologiyalar orqali rivojlanayotgan davlatlarda tarmoqlarni modernizatsiya qilmoqda. Ikkinchi muhim yo‘nalishlardan biri elektron tijorat. Alibaba Group kabi kompaniyalar kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratib global savdoni raqamlashtirish bilan shug‘ullanmoqda. Uchinchi yo‘nalish sun‘iy intellekt va Big Data. CAIED ma‘lumotlariga ko‘ra, Xitoyning 155 ta sun‘iy intellekt eksporti loyihalari 64 mamlakatda aniqlangan bo‘lib, ular sun‘iy intellekt ilovalari yoki sun‘iy intellekt infratuzilmasi (ya‘ni, sun‘iy intellekt ilovalari uchun muhim infratuzilma yoki kelajakda sun‘iy intellekt ilovalarini moslashtirish imkonini beruvchi vosita sifatida) sifatida tasniflangan [5].

“Digital Silk Road” Xitoy uchun nafaqat global ta‘sirni kengaytirish uchun vosita, balki strategik hamkorlik tarmoqlarini ham shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Saudiya Arabistoni bilan bo‘lgan munosabatlar bu jarayonga misol bo‘la oladi. Qirollik iqtisodiyoti va ambitsiyalari o‘sib borar ekan, u telekommunikatsiyani modernizatsiyaning asosiy drayveri sifatida qabul qildi va Ar-Riyod Xitoy kompaniyalari uchun bozorni ochdi. Natijada, Huawei va Alibaba Group kabi

kompaniyalar davlat idoralari va mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, qirollikning 4G va 5G tarmoqlariga o‘tish jarayonida muhim o‘rin egalladi. Bu esa uzoq vaqt davomida G‘arb kompaniyalari ustunlik qilgan texnologik bozorda muvozanatning o‘zgarishiga olib keldi.

Mazkur hamkorlikning kuchayishida AQSH va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy ziddiyatlar ham muhim rol o‘ynadi. Jumladan, “Arab bahori”, Suriya urushi bilan bog‘liq voqealar fonida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar murakkablashdi. Shu davrda Pekin oddiy energiya importchisi va arzon AKT yetkazib beruvchidan keng qamrovli strategik sherikka aylandi. Bugungi kunda Xitoy Saudiya Arabistonining eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo‘lib, energetika bilan bir qatorda aqlli shaharlar, bulutli infratuzilma va sun‘iy intellekt sohalarida ham faol ishtirok etmoqda [6]. Bundan tashqari, DSR doirasida Xitoyning texnologik kengayishi boshqa mintaqalarda ham kuzatilmoqda. Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlari arzon va sifatli telekommunikatsiya texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj tufayli Xitoy bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Bu esa Xitoyning global “raqamli ta‘sir zonasi”ni kengaytirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy jihatdan esa, DSR global infratuzilma moliyalashtirishdagi katta bo‘shliqni qoplashga yordam bermoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2040-yilga kelib



ushbu taqchillik qariyb 15 trillion dollarga yetadi va Xitoy investitsiyalari ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omilga aylanmoqda [7]. Shu bilan birga, ushbu jarayonlar ma'lum xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Xitoy texnologiyalaridan keng foydalanish ayrim davlatlarni Xitoy ishlab chiqaruvchilari va platformalariga qaram qilib qo'yishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lumotlar oqimlarini boshqarish masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida Xitoy kompaniyalari tomonidan ma'lumotlar yig'ilishi va ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish ehtimoli yuzasidan xavotirlar mavjud. Ayrim tahlillarga ko'ra, bu ma'lumotlar Shinjon-Uyg'ur avtonom hududidagi vaziyatni kuzatish bilan bog'liq tarzda ham ishlatilishi mumkin [8]. Umuman olganda, Digital Silk Road bir tomondan global infratuzilma rivoji va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan geosiyosiy raqobatni kuchaytirib, yangi turdagi texnologik va axborot xavfsizligi muammolarini yuzaga keltirmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Digital Silk Road zamonaviy global tizimda nafaqat iqtisodiy, balki strategik va geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim tashabbus sifatida shakllanmoqda. Belt and Road Initiative doirasida amalga oshirilayotgan ushbu loyiha orqali China raqamli infratuzilmani rivojlantirish, texnologik

standartlarni ilgari surish hamda global miqyosda o'z ta'sirini kengaytirishga erishmoqda. Telekommunikatsiya, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va ma'lumotlar markazlari kabi yo'nalishlar orqali DSR global iqtisodiyotning yangi bosqichini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu tashabbus rivojlanayotgan davlatlar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, arzon va samarali texnologiyalar orqali internet qamrovining kengayishi, raqamli xizmatlarning rivojlanishi va yangi iqtisodiy faoliyat turlarining paydo bo'lishi iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Ayniqsa, infratuzilma yetishmovchiligi mavjud bo'lgan mintaqalarda DSR investitsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi va global infratuzilma moliyalashtirishdagi katta bo'shliqni qoplashga yordam beradi. Biroq, Digital Silk Road faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmaydi.

Ushbu tashabbus texnologik qaramlik, ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayrim davlatlarda Xitoy texnologiyalariga haddan tashqari bog'lanib qolish ehtimoli mavjud bo'lib, bu ularning raqamli suverenitetiga ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lumotlar oqimlarini boshqarish va ulardan foydalanish masalalari geosiyosiy raqobatning yangi shaklini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonda AQSH va Xitoy o'rtasidagi texnologik qarama-



qarshilik yanada kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan, Digital Silk Road global raqamli tartibni shakllantirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Sun'iy intellekt, Internet of Things va boshqa ilg'or texnologiyalar ushbu tashabbusning qamrovini yanada kengaytiradi. Shu bois,

ushbu jarayonda ishtirok etayotgan davlatlar nafaqat iqtisodiy foydani, balki xavfsizlik va mustaqillik masalalarini ham inobatga olgan holda strategik qarorlar qabul qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Цифровой Шелковый путь» в Центральной Азии // Интернет-портал СНГ. 10.03.2023. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://e-cis.info/news/566/107475/>
2. Hung, J. (2025). Artificial Intelligence Exports and the Digital Silk Road: A Comparative Analysis of China's Impact on the Digital Economy and Geopolitics in Southeast Asia. *Frontiers in Political Science*, 7, 1685231.
3. Tencent Cloud запускает первый дата-центр в Индонезии, ускоряя глобальную экспансию // Prc.today. 14.04.2021. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://prc.today/tencent-cloud-zapuskayet-pervyj-data-czentr-v-indonezii-uskoryaya-globalnuyuekspansiyu/>
4. Мироненко В. Китайские частные операторы ЦОД стремятся освоить зарубежные рынки // Servernews. 11.07.2022. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://servernews.ru/1069895>
5. BoueyJ.HuL.SchollK.MarcellinoW.YiS.DossaniR.et al. (2023). China's AI exports database (CAIED). Santa Monica, CA: RAND Corporation.
6. Countering the Digital Silk Road: Saudi Arabia. URL: <http://www.cnas.org/publications/reports/countering-the-digital-silk-road-saudi-arabia>
7. Council on Foreign Relations China's Digital Aid: The Risks and Rewards. URL: <https://www.cfr.org/china-digital-silk-road/>
8. «Цифровой Шелковый путь» в Центральной Азии // Интернет-портал СНГ. 10.03.2023. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://e-cis.info/news/566/107475/>